

METALLARGA ISHLOV BERISH BOBINI O'QITISHDA KREATIV YONDASHISH

Kenjayev Ravshanjon Qodirjon o`g`li

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada texnologiya ta`limi jarayonida o`quvchilarga nazariy ma`lumot berish bilan birgalikda amaliy mashg`ulotlar o`tkazish, ko`rgazmali qurollar orqali o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish kabi masalalar k`rib chiqiladi

KALIT SO`ZLAR: ketma-ketlik va sistemalilik, konstruksiyalash, fan va texnika taraqqiyoti, diapozitivlar, kinofilmlar, universal dastgohlar

KIRISH

O`rta maktabdagi kasb ta'limining mazmuni haqida umuman gapiriladigan bo'lsa, bunda ham ma'lum ketma-ketlik va sistemalilikni qayd etish mumkin. Sinf-dan-sinfga o'tgan sayin o'quvchilar murakkabroq mehnat qurollari ishlatilishini, ko'p jismoniy kuch sarflash hamda psixik rivojlanishning yuksak darajada bo'lishini talab qiladigan materiallardan detallar tayyorlash usullarini o'rgana boradilar. Sekin-asta mashina mehnatiga, oldin sodda, keyinchalik murakkab mashinlarning qurilishini o'rganishga jalb qilinadi. Yuqori sinf o'quvchilari yog'och va metallga qo'l bilan ishlov berish usulidan hozirgi zamon universal dastgohlarda ishlashga; o'quv panellarida elektr o'tkazgichlarni montaj qilishdan elektr taqsimlash shitlari va priborlarini, elektr kuch ustanovkalarini va priborlarini tiklash ishida qatnashishga o'tadilar.

Ustaxonadagi mashg'ulotlarda ko'rsatmalilik, avvalo texnik chizmaning hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi roli bilan bog'liq holda alohida ahamiyat kasb etadi. Chizmani o'qish mehnat topshirig'ini bajarish bosqichlaridan biridir. Bundan tashqari chizmachilikka oid ayrim bilimlarsiz o'quvchilarga konstruksiyalash va texnologiya elementlarini o'rgatib bo'lmaydi.

ASOSIY QISM

Chizmachilik kursini o'rganish VIII-IX sinflarda amalga oshiriladi. Shu sababli kasb ta'limi o'qituvchisi V-VII Sinflarda o'quvchilarni chizmachilik elementlari bilan tanishtirishiga to'g'ri keladi.

Ilg'or o'qituvchilarning tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, ustaxonalardagi mashg'ulotlarda o'quvchilar chizmachilikdan chizmani o'qish, uncha murakkab bo'lmagan detalni tekislikdagi tasviri bo'yicha fazoda tasavvur qila olish uchun yetarli bilimlarni olishi mumkin. Bunga erishmoq uchun ustaxonalarda o'tkaziladigan birinchi mashg'ulotdan boshlab o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish bo'yicha sistemali, rejali ish olib borish kerak.

Ustaxonlardagi mashg'ulotlarda ko'rsatmalilikning keng tarqalgan hamma turlari-tarqarma material, plakatlar, modellar, diapozitivlar, kinofilmlar va boshqalardan foydalaniladi. O'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarga xos ko'rsatmali qo'llanmaning bajarilishiga oid, operatsiyalar bo'yicha texnologik jarayonlar va zagotovkalarini ishlashga mo'ljallangan asboblari tasvirlanadi.

Kasb ta'limida afsuski, ayrim o'qituvchilarimizning ishida ham uchraydigan jiddiy kamchilik bu tashabbusiz faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Bunda o'quvchilarning materialni ongli faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Bunda o'quvchilarning materialni ongli faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Bunda o'quvchilarning materialni ongli o'zlashtirishlariga emas, balki har xil tayyor ma'lumotlarni mexanik ravishda yodlab qolishga zo'r beriladi. Ustachilikka o'rganish shunga olib keladiki, o'quvchilar o'zlari uchun yangi ishlab chiqarish, vaziyatiga moslasha olmaydilar, hozirgi zamon ishlab chiqarishining ishchiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri ham shundan iboratdir. O'quvchilar o'z bilimlarini amalda qo'llay olsalargina ta'limda onglilikka erishilgan deb hisoblash mumkin.

Onglilik o'quvchilarning aktivligi bilan uzviy bog'liqdir. Kasb ta'limi jarayonida o'quvchilar aktivligining rivojlanishi uchun alohida yaxshi sharoit yaratiladi. Bu sharoit avvalo mehnatning unumliligi xarakteridan iborat bo'ladi. Agar o'quvchilar o'z mehnatlarining natijasi biror ijtimoiy foydali maqsadga mo'ljallanganini bilsalar, zo'r qiziqish hamda topshiriqni sifatli va muddatida bajarish ishtiyoqi bilan ishlashi aniqlangan.

Shu sababli korxonalarining, otaliqdagi bolalar bog'chasining, maktab o'quv kabinetlarining o'quvchilar bajara oladigan va programma mazmuniga javob beradigan buyurtmalaridan mehnat o'qituvchisi o'quvchilar aktivligini oshirishning muhim vositasi sifatida foydalanishi kerak. Mehnat o'quvchilarga tushunarli va ularning kuchlari yetadigan bo'lishi.

Kasb ta'limi bo'yicha o'quv materialining mazmuni fan va texnika taraqqiyotining hozirgi, darajasiga mos, shuningdek, o'quvchilarga tushunarli bo'lishi shart.

XULOSA

Shuning uchun ko'pincha o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishlarini, osonlashtiradigan va ularni ancha qiyin nazariy va amaliy masalalar bilan tanishtiradigan har xil metodlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Masalan, VII sinfda o'quvchilar bolg'lash asbobining geometriyasi bilan tanishadilar, bu ish bolg'lash jarayonining fizik asoslarini tushunish uchun zarurdir. Ammo buning uchun sakkizinchi sinf o'quvchilari matematika va fizika bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'lmaydilar. Shu sababli bu mavzu materialini quyidagicha ketma-ketlikda bayon qilish maqsadga muvofiqdir:

1) bolg'lash asbobining bir tomoni qirquvchi-zubilo va ikkinchi tomoni esa muxrdan iboratligini murakkab bo'lmagan shaklda ekanini tushuntirish;

2) bolg'lash asbobining bir tomoni qirquvchi-zubilodan nima maqsadda foydalanish va ikkinchi tomoni esa muxrdan metallarni bosim bilan ishlashda uni deformatsiyalashda lozimligini tushuntirish va konkret misollar keltirish kerak.

ADABIYOTLAR

1. S. Bekmurodova. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo'llanma. – Toshkent. 2017.-140 b.
2. O. A. Qo'ysinov, O'.O.Tohirov va boshqalar. Elektrotexnika va elektronika asoslari. Metodik qo'llanma. – T.: "Delta print" MCHJ, 2017.-116 b.
3. Tohirov O'. O. va boshqalar. Texnologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: "ILM-ZIYO" nashriyot uyi, 2019.-160 b.
4. O. A. Qo'ysinov, O'. O. Tohirov va boshqalar. Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi. Metodik qo'llanma. – T.: "Delta print" MCHJ, 2017.-64 b.